



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/12

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№12/2023
DEKABR (1)

Muassis:
Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti
rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining
2021 yil 30 sentyabrda
306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:
15.12.2023 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.
Buyurtma raqami 1.23
«FAN VA TA'LIM»
nashriyotida chop etildi.
Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305
raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari
davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi
va 2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan
boshlab har oyda 1 marta
o'zbek, rus va ingliz tillarida
chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion
tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatining roziligi
bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan
faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Axmetov D. D. Tarix darslarida mustaqil ta'lim topshirliklari ustida ishlash	7
Axatov J. K. Falasafiy - axloqiy qarashlar ta'limi – tasavvuf, sufiy va ilmiy timsoli	13
Erjanzova G. M. Tarix iqtisodida iqtisodchilarning mantiqiy fikrlashga yrgatuvchi iqtisod topshirliklardan amaliyotda foydalaniish	17
Ganiev S. T. Oliy ta'limda milliy tarixni iqtisod orqali talabalarida mustaqil ishlash kunlikmasini rivojlantirish usullari	22
Iskandarov Sh. N. So'ngi amir said olimxonning afg'onistondagi muhojirligi	26
Miraxmedova Sh. N. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kitobxonlik madaniyati	30
Nasirov B. U. Umumiy o'qatlanish tizimi faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar va ularning aholi turmush tarziga ta'siri. (xix asr oxiri- xx asr boshlarida o'zbekiston misolida)	34
Norinov M.R. Namangan madaniy hahotida muzeylarning o'rni (namangan o'lkashunoslik va madaniyat muzeyi misolida)	38
Norqochqarov X. E. Afg'onistonda o'zbek tilining qonuniy asoslanishi, o'zbeklar ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni (XX asr – XXI asr boshlari)	41
Xamrokulova Sh. Sh. Qozoq xonligining shakllanish tarixi.	49
Yo'ldashev U. X. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti	53
Yunusxo'jayev H. Z. G'arb olimlari asarlarida ijtimoiy davlatchilik tarixining yoritilishi.	59
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Abdullayeva X. N. Sehrli ertaklarda g'ayrioddiy tug'ilish motivining o'ziga xos turlari va ulaning tahlili	62
Abdullaeva P. X. Лингвокультурный анализ паремий, характеризующих внешность человека в русской и узбекской пословичной картине мира	66
Adizova O. I. Topishmoqlarning ijtimoiy –madaniy o'ziga xosliklari	74
Amonov U. Mumtoz adabiyotimida tazkirachilik an'anasi	79
Axrorova M. A. XX asr boshlarida navoiy an'anasi	86
Azimov Yu. Yu. “Devoni foniy”da she'r va shoirlik haqida	90
Бобо-Ходжаева А. Л. О лингвокультурном влиянии некоторых тюркизмов на современный русский язык	95
Hojiyeva G. S., Abduraximova M. D. Fransuz tilidagi san'at terminlari asosida yasalgan frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari	98
Икрамова Ш. Отражение социальных ролей в семантической структуре слов	101
Муртазаева Ф. Р. Типология женских образов и характеров в мировой «женской прозе»	106
Pardayev S. SH. Til madaniyatning aloqa tizimi sifatida	113
Suyunov R. S. Milliy gvardiya bo'linmalari shaxsiy tarkibini tarbiyalashdagi muammolari	117
Suleymanov T. Kh. The syntactical and lexical peculiarities of “Barn burning” by w. Faulkner	120
Sunnatov T. Qadimgi dunyo madaniyatida badiiy ijod namunalari	124
Tohirova Sh. Y. Fundamental steps for the development of lexical competence in english classes of non-philological higher education institutions based on case studies	128

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA KITOBXONLIK MADANIYATI

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Prezidentimiz boshlagan besh muhim tashabbusning o'zagi hisoblangan kitobxonlik va mutolaaga davlat tomonidan berilayotgan katta e'tibor, jamiyatimizda yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik, tashabbus, ijod.

БИБЛИОТЕЧНАЯ КУЛЬТУРА В НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Мирахмедова Шохиди Нусратилловна

*Чирчикский государственный педагогический университет
Преподаватель кафедры «Межфакультетские общественные науки»*

Аннотация. В этой статье рассматривается большое внимание, уделяемое государством чтению и чтению, которое является ядром пяти важных инициатив, выдвинутых Президентом, современное состояние культуры чтения, имеющей несравненное значение в идейно-идеологическом развитии молодежи. в нашем обществе представлены некоторые проблемы в связи с этим и их комментарии по устранению

Ключевые слова: творчество, художественное творчество, стиль, направление, искусство, архитектура, эстетика, развитие, ренессанс.

LIBRARY CULTURE IN THE NEW DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

*Chirchik State Pedagogical University
Lecturer at the Department of Interfaculty Social Sciences*

Annotation: In this article, the great attention paid by the state to reading and reading, which is the core of five important initiatives launched by the President, the current state of reading culture, which is of incomparable importance in the ideological and ideological development of young people in our society, some problems in this regard and their comments on elimination are presented.

Key words: reading culture, spiritual need, family reading, analysis of artistic work, cultural speech, text composition, literacy, initiative, creativity.

KIRISH. Muhtaram yurtboshimiz ilgari surgan besh tashabbusning biri - yoshlarni adabiyotga, mutolaaga, kitobga, kitobxonlikni rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Mana salkam besh yildirki O'zbekiston kitobsevarlar mamlakatiga, mutolaa mamlakatiga aylanmoqda, kitobxonlikni targ'ib qilish, biz yoshlarni mutolaaga chorlash masalalari davlat siyosatiga aylanib ulgurdi. Bu avvalamdor Uchinchi Renessans poydevorini qurishga shaylanayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'z aksini ko'rsatmoqda.

Insoniyatning farovon, to'kin-sochin hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, "insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi", yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O'zbekiston, yurtboshimiz e'tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Adabiyot vatanparvarlarni voyaga yetkazadi va tarbiyalaydi, shuning uchun ham kitobga mehr, mutolaaga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda.

Davlatimiz rahbari biz yoshlarning dunyoqarashimiz shakllanishi, mustaqil fikrlashimiz, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalari bilan yaqinroq tanishishimiz maqsadida kitobxonlik va mutolaaga doir qator islohotlarni amalga oshirmoqdalar. 2018-yilning 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qaroriga, Hukumat qaroriga asosan 2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlangani:

2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

2020-2022 yillarda oid infratuzilmani mustahkamlash;

2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun olib borilayotgan say-harakat yoshlarni bilimga, kitobga bo'lgan mehrini oshirishlariga qanot berishi shubhasiz.

Davlat va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida qancha taraqqiy etsa, insonlarning ilmiy-ma'naviy salohiyati ham shunga mos va mutanosib bo'lishi lozim. Fuqarolarning ilmiy iqtidori, rahbarlik salohiyati, harbiy bilimlari, kasbiy mahorati yuqori saviyada bo'lishi bilan birga, ularning shaxsiy fazilatlarini: insoniylik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ulari qanchalik kuchli bo'lsa, davlatimiz poydevori ham, kelajagi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallash yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat'iy bo'lmog'i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash" maqsadida keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Tarixiy hodisalar shundanguvohlik beradiki, moddiy ehtiyojlar har bir davrda o'ziga xos tarzda namoyon bo'laveradi, lekin ma'naviy immunitetning mustahkam bo'lishi hamma davrlar uchun birdek qadriyat sanaladi. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan oliy maqsad – mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish yo'lida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan yosh avlodning, o'quvchi va talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mukammal tarbiyalanishi ayni maqsadga muvofiq hodisa sifatida jamiyat a'zolarining diqqat markazida turuvchi dolzarb masaladir. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi – bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu sohada ijobiy o'zgarishlar, tub islopotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag'batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o'qishga ishtiyoqi ortdi.

Nashriyotlarda badiiy asarlarni bir necha nusxada chop etish va hududlarga tarqatish ishlari sur'ati oshdi. Biroq, tan olish kerakki, bu maskanlar hali gavjum go'shalarga yetarlicha aylanib ulgurganicha yo'q. Demak, jamiyatimizda kitobga mehr qo'yish, kitobxonlikka qiziqish eng zarur ehtiyoj ekanligiga aholi o'rtasida hali to'liq e'tibor qaratilmagan. Pedagog sifatida tajribamizdagi kuzatishlardan kelib chiqib bu holat yuzasidan ayrim mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma'lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug'bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma'naviyati bolalikdan kitobga mehr qo'yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og'zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo'lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatleri shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bunday ma'naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatlisi shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e'tiqod va iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o'sgan, kishilar ongi ham ma'nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan.

MUHOKAMA. “Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oily o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi. Kam o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildirish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi; madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'grilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflilik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning isboti sifatida aytishimiz mimkinki, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz. Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularning estetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'quvchi bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdagi badiiy asarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o'quvchilari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

NATIJA. Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o'quvchida badiiy kitob o'qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Demak, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o'qishni, tahlil qilishni muntazam o'rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko'paytirish, mashg'ulotlarni guruhlarga bo'lib o'tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq

bo'lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkoni ortadi, darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o'quvchilar mutaxassis o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatda bo'lib, ulardan tajriba o'rganadilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatleri to'la namoyon bo'ladi.

XULOSA. Shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Mamlakatimizda har yili aprel oyining birinchi haftasida o'tkazilishi mo'ljallanayotgan "Kitobxonlik haftaligi" nafaqat kitobsevarlar safini yanada kengaytirishiga, balki nurli tashabbuslarning keng quloch yoyishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga

Murojaatnomasi. – "Zarafshon", 2018-yil 29-dekabr, 155-156-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – "Zarafshon", 2020-yil 30-dekabr.

O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak. – "Xalq so'zi", 2018-yil 19-dekabr, 262-son.

Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882
Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

Bosishga ruxsat etildi 15.12.2023. Buyurtma №2447.
«Buxoro viloyat bosmaxonasi» MCHJda chop etildi.